

QO'SHILGAN QIYMAT SOLIG'INING MILLIY IQTISODIYOTDA TUTGAN O'RNI

Irismuxammedov Bekzod Arifjanovich

Toshkent moliya institute 2-kurs "SST-3" guruhi magistranti

Annotatsiya: *Mazkur maqolada qo'shilgan qiymat solig'ining iqtisodiy mohiyati, shuningdek, mamlakatimiz soliq tizimida qo'shilgan qiymat solig'i stavkasining o'zgarish dinamikasiga oid ma'lumatlar samarali yoritib berilgan.*

Kalit so'zlar: *egri soliq, fiskal vazifa, qo'shilgan qiymat solig'i, qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchilari, uzluksiz sanjir, taraqqiyot strategiyasi.*

Аннотация: *В данной статье эффективно освещается экономическая сущность налога на добавленную стоимость, а также информация о динамике изменения ставки налога на добавленную стоимость в налоговой системе нашей страны.*

Ключевые слова: *косвенный налог, фискальная задача, налог на добавленную стоимость, плательщики налога на добавленную стоимость, непрерывная цепочка, стратегия развития.*

Jahonda ro'yo berayotgan global beqarorlik sharoitida milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligini oshirish, jumladan, tarkibiy tuzilmasini takomillashtirishda xo'jalik yurituvchi sub'ektlar o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlarda qo'shilgan qiymat solig'ining uzluksiz zanjiri imkoniyatlaridan keng foydalanish o'zining dolzarbligi bilan ahamiyatlidir. Mazkur sohani tartibga solishda samarali soliq mexanizmini joriy etish muhim yo'nalishlardan biriga aylanmoqda.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan so'ng dastlabki yillardanoq davlat byudjetiga tashqaridan dotatsiya va subvensiya olmasdan tuzilishi bo'yicha talablalar qo'yildi. Shu talabdan kelib chiqqan holda davlat byudjetini tuzishda soliq siyosati ijtimoiy-iqtisodiy yo'nalishga ega bo'lgan byudjet daromad va xarajatlarining tengligini ta'minlash bilan bog'liq bo'lgan muammolarni hal qilishga qaratilgan edi. Yuzaga kelgan vaziyat bilvosita soliqlar asosan qo'shilgan qiymat solig'iga asoslangan soliq tizimini fiskal vazifani bajarishi zarurligini taqozo qildi. Soliqlarni joriy etishdan asosiy maqsad davlat byudjeti daromadlarini shakllantirishdan iborat edi. Soliq tizimidagi chuqur islohotlar bo'layotgan bir davrda "Aylanmadan soliq" va "Sotishdan soliq" o'rniga qo'shilgan qiymat solig'i joriy etildi.

Qo'shilgan qiymat solig'ini joriy etishdan maqsad bo'lib birinchi navbatda u yordamida davlat byudjetiga daromadlar tushumining tengligini ta'minlash va bozor munosabatlarini shakllantirish vaqtida kata ahamiyatga ega bo'lga davlat byudjeti tuzishning barqaror bazasini yaratish hisoblanadi.

Qo'shilgan qiymat solig'ining mamlakatimizdagi rivojlanish tarixi qisqa davrni o'z ichiga olgan bo'lishiga qaramay ancha samaradorlik ko'rsatib kelmoqda va byudjet daromadlarini shakllantirishda mustahkam o'rin egallagan.

Jahon savdo tashkiloti talqinida "egri soliqlar" atamasi savdo solig'i, aksiz solig'i, aylanma va qo'shilgan qiymat solig'i, franshizalar, pochta to'lovlari, zahiralalar va asbob-uskunalarga


o'tkazma solig'i, chegara bojlari va to'g'ridan-to'g'ri soliqlar va import yig'imlaridan tashqari barcha boshqa soliqlarni anglatadi.

Ulardan asosiysi qo'shilgan qiymat solig'i bo'lib, u keng tarqalib, dunyoning 150 dan ortiq mamlakatlarida undiriladi. Uning asosiy afzalliklari har qanday ishlab chiqaruvchi mamlakatga, ishlab chiqarish sikliga, ishlab chiqarish usullariga nisbatan betaraflikdir. Potensial keng qamrovli qo'shilgan qiymat solig'i bazasi iqtisodiy siklning barcha bosqichlarida yukni teng taqsimlash va davlat daromadlarini oshirish imkonini beradi. Yuridik shaxslarning deyarli barchasi qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchilari bo'lib, bu uning barqarorligini ta'minlaydi.

Qo'shilgan qiymat solig'ining yaratilishi bir vaqtning o'zida o'ziga xos, unga mos soliq munosabatlarini yuzaga keltiradi va uning takomillashtirilib borilishini ta'minlaydi. Shunday ekan qo'shilgan qiymat solig'ining mohiyati boshqa soliqlarga mansub munosabatlar doirasida shakllantiriladi va rivojlantiriladi.

Qo'shilgan qiymat solig'i solig'i egri soliqlar qatoriga kirib, uning soliq yuki boshqa bilvosita soliqlarniki kabi ishlab chiqaruvchiga emas balki oxirgi iste'molchilarga tushadi. Qo'shilgan qiymat solig'i korxonaga uchun betaraf soliq bo'lganligi uchun qo'shilgan qiymat solig'i korxonaning moliyaviy yakuniga ta'sir ko'rsatmaydi.[1]

O'zbekiston Respublikasida tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiruvchi va (yoki) tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qiluvchi quyidagilar qo'shilgan qiymat solig'ini to'lovchilar deb e'tirof etiladi (Soliq kodeksining 237-moddasi)



1-rasm. Qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchilari.[2]

Qo‘shilgan qiymat solig‘i solig‘i davlat byudjeti daromadlarini shakllantirishdagi ahamiyatini ko‘rib chiqdik endi esa davlat byudjetidagi bu mavqeni yillar davomida oshib borishi va davlat byudjeti daromadlarini shakllantirishdagi o‘rnini saqlab turish uchun muhim omil bo‘lgan uning stavkalarini ko‘rib chiqamiz. Qo‘shilgan qiymat solig‘ining rivojlanish tendensiyasi yillar mobaynida soliq stavkalariga qanday ta‘sir o‘tkazganligini ko‘rishimiz mumkin.

1-jadval

Qo‘shilgan qiymat solig‘i stavkasining yillar bo‘yicha o‘zgarishining tahlili.[3]

Moliya yillari	Soliq stavkasi
1992	30%; 28%
1993*	25% - 6%
1994	20%
1995	18%
1996	17%
1997**	18% - 10%
1998**	20% - 10%
1999**	20% - 15%
2000-2018	20% - 0%
2019	20% - 0%
2020	15% - 0%
2021	15% - 0%
2022	15% - 0%
2023	12% - 0%

1-jadval ma‘lumotlari tahlilidan ko‘rinib turibdiki, *-soliq stavkasi 25% bo‘lib soliqdan shakllangan summaning 6% i korxonalar ixtiyorida qoldirilgan.

**-Ijtimoiy ahamiyatga molik bo‘lgan ayrim oziq-ovqat tovarlari bo‘yicha imtiyozli soliq stavkasi ko‘zda tutilgan (sut, go‘sht, un, non). Qo‘shilgan qiymat solig‘ining stavkalari eng yuqori stavkasi 1992 yilda amal qilgan bo‘lib, 30% va 28% ni tashkil etgan. 1994, 1995, 1996 yillarda esa Qo‘shilgan qiymat solig‘i yagona stavkada, mos ravishda 20%, 18% va 17% ko‘rinishida amal qilgan.

Asosiy stavka 20% va eksport qiluvchi korxonalariga 0% li stavka 2000 yildan amalga kiritilgan bo‘lib, 2020 yildan 2022 yilgacha 15 foiz miqdorida belgilandi. 2023 yil 1 yanvardan qo‘shilgan qiymat solig‘i stavkasi 12 foiz miqdorida belgilandi.

Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev ta‘kidlaganidek, - “Bugungi soliqchilar 3 yil oldingi soliqchilar emas. Zamon ham o‘zgardi, bular ham o‘zgardi: 5 yilda biz mutlaqo yangi soliq tizimini yaratdik. 2020 yilda ko‘p muhokamalardan so‘ng, biz bugungi O‘zbekistonimizga munosib bo‘lgan yangi Soliq Kodeksini qabul qildik. 13 tadan 9 taga soliq turlari kamaytirildi. Mulk solig‘i 5 % dan 1,5 % ga tushdi. QQS 20% dan 15% ga tushdi. 2023 yil 12 % ga tushirishimiz kerak. Buning uchun ko‘p ish qilishimiz kerak. Odamlar qachon bizdan rozi bo‘ladi? Soliq yuki kamayib, daromadlarimiz oshib borsa, rozi bo‘ladi.”[4]

Bularning natijasida tadbirkorlarning islohotlarga ishonchi ortib, soliq tushumlari 4 baravar ko‘paydi. Qo‘shilgan qiymat solig‘i to‘lovchilar soni 6 mingdan 152 mingtaga yetdi.

Taraqqiyot strategiyasida bu boradagi islohotlarni davom ettirib, soliq ma‘muriyatchiligini soddalashtirish vazifalari belgilangan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Yahyoyev Q. “Soliqqa tortish nazariyasi va amaliyoti.” -T.: 2000. 59-b.
2. O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 237-moddasi, <https://lex.uz/docs/-4674902>
3. <http://www.mf.uz/uz/podrazdeleniya-minestrstva/gusudadarstvennye/> O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi ma`lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi
4. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёев. Халқимиз қачон рози бўлади? Солиқ кам бўлиб, даромади ошса - <https://review.uz/oz/post/xalqimiz-qachon-rozi-boladi-soliq-kam-bolib-daromadi-oshsa-shavkat-mirziyoyev>